

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– iyul holatiga

RAQAMLAR:


- Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1606 taga o'sdi**
- Faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalarning ulushi **-0,8 f.p kamaygan.**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1500 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-iyul Buning natijasida joriy oyida viloyatimizda 1897 ta yilning boshiga nisbatan korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan korx yangi tashkil etildi, bu esa ona va tashkilotlar soni 1606 o'tgan yilning shu davriga ta (8,7 %) ga o'sgan hamda nisbatan 392 taga ko'pdir. ularning umumiy soni 20077

Shuningdek faoliyati tu gatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yiln- Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning shu davriga nisbatan ning asosiy ulushi Qarshi 59,6 % ga kamaygan shahrida (21,4 %), Koson hamda ularning soni 397 (8,6 %), Chiroqchi (7,9 %) tani tashkil etganligini ku- va Qarshi (7,5 %) tumanlari zatish mumkin. da kuzatilmoqda.




Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 avgust holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Qashqadaryo viloyatida	20687	100,0	20077	100,0
Qarshi shahar	4486	21,7	4294	21,4
Shahrisabz shahar	1329	6,4	1319	6,6
tumanlar:				
G'uzor	934	4,5	863	4,3
Dehqonobod	1032	5,0	951	4,7
Qamashi	1385	6,7	1367	6,8
Qarshi	1534	7,4	1515	7,5
Koson	1752	8,5	1736	8,6
Kitob	1451	7,0	1442	7,2
Mirishkor	626	3,0	613	3,1
Muborak	799	3,9	758	3,8
Nishon	726	3,5	707	3,5
Kasbi	719	3,5	684	3,4
Chiroqchi	1624	7,9	1579	7,9
Shahrisabz	902	4,4	885	4,4
Yakkabog'	1388	6,7	1364	6,8

Korxonalar va tashkilotlarning umumiyligi sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiyligi sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 97,1 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 2,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi –0,8 ga kamaygan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soniga nisbatan 23,2 % savdoda, 12,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 12,1 % qurulishda, 11,5 % sanoatda, 4,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,6 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'linqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % axborot va aloqa va 29,4% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-iyul holatiga 1897 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 26,0 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahrida (386 ta), Chiroqchi (173 ta), Yakkabog' (146 ta) va Koson tumanlarida (139 ta) tashkil etilgan. Eng kam Kasbi (64 ta), Mirishkor (70 ta) hamda G'uzor (71 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (317 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (294 ta), sanoatda (278 ta), qurilishda (250 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (80 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (20 ta), tashish va saqlashda (44 ta) hamda sog'lqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (63 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-iyul holatiga	2018 yil yanvar-iyul holatiga
Jami:	1505	1897
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	354	294
Sanoat	305	278
Qurilish	178	250
Savdo	261	317
Tashish va saqlash	49	44
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	99	80
Axborot va aloqa	24	20
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	31	63
Boshqa turlari	204	551

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari).


2018 yil 1 avgust holatiga 16030 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 7052 ta, oilaviy korxonalar – 619 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 7501 ta, aktsiyadorlik jamiyatları – 42 tani va boshqalar 815 tan tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 avgust holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 67 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 taga yoki 26,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 50 tasi qo'shma korxonalar, 17 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahar 26 ta (37,1 %), Kitob tumani 10 ta (14,3 %), Qarshi tumani 8 ta (8,6 %), Qamashi tumani 5 ta (7,1 %), Muborak tumanlari 4 ta (5,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Dehqonobod tumanlari 1 ta (1,4 %) Yakkabog', Koson, Nishon, Kasbi, Chiroqchi tumanlarida 2 ta (2,9 %) hissalariga tog'ri keladi. Mirishkor tumanida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilmagan. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 avgust holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 42 ta (62,7 %), savdoda 10 ta (14,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7 ta (10,4 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hamda axborot va aloqada 1 ta (1,5 %), qurilish 2 ta (3,0 %), boshqa turlar 3 ta (4,5 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-iyul oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 14 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga ko'paygan yoki 5,0 baravarga oshgan.

Bunda, AQSh va Afg'oniston rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 5 ta, Janubiy Koreya Respublikasi– 3 ta, Rossiya Federatsiyasi - 2 ta, Birlashgan Arab Amirligi - 2 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 15890 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 avgust holatiga qaraganda 8,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 3538 tasi (22,3 %) Qarshi shahriga, 1419 tasi (8,9 %) Qarshi, 1273 tasi (8,0 %) Chiroqchi hamda 1213 tasi (7,6 foizi), Kitob 1130 tasi (7,1 foizi) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 15890 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4633 tasi (29,2 %) – savdoda, 2500 tasi (15,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2414 tasi (15,2 %) - qurilishda, 2258 tasi (14,2 %) - sanoatda, 809 tasi (5,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 713 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 331 tasi (2,1 %) - sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 227 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2005 tasi (12,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da


- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Qurilish
- Sanoat
- Axborot va aloqa
- Savdo
- Boshqa turlar



2018 yil yanvar-iyul holatiga 1785 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 7,8 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Qarshi shahrida (357 ta), Chiroqchi (163 ta), Yakkabog' (140 ta) va Koson tumanlarida (135 ta) tashkil etilgan. Eng kam Kasbi (61 ta), Dehqonobod (66 ta) hamda G'uzor (68 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (317 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (294 ta), sanoatda (278 ta) va qurilishda (250 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (20 ta), tashish va saqlashda (44 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (62 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 avgust holatiga 630 tani tashkil etib, ulardan 619 tasi yoki 98,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **25,3 %**ga oshganligini ta`kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 29,1 % yoki 180 tasi sanoat, 19,2 % yoki 119 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,3 % yoki 107 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 16,2 % yoki 100 tasi savdo, 2,4 % yoki 15 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,8 % yoki 11 tasi qurilish, 1,6 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 12,1 % yoki 75 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

(0371) 230-84-11
(0375) 221-17-93

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan**